



## STATE POLICY AIMED AT STABILITY OF NATIONS IN CENTRAL ASIAN STATES (1991-2021 years)

**Ravshan Khomitov**

Associate Professor, PhD in Philosophy

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

[xamitovravshan7@gmail.com](mailto:xamitovravshan7@gmail.com)

Tashkent, Uzbekistan

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Central Asia, ethnic factor, integration, national issue, demography, inter-ethnic relations.

**Abstract:** The article presents the perspective of state policy regarding interethnic relations of the Central Asian states.

It shows the tasks facing the states and their organizational and legal solutions.

**Received:** 25.03.26

**Accepted:** 26.03.26

**Published:** 27.03.26

## MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARINING MILLATLARARO BARQARORLIKKA OID DAVLAT SIYOSATI (1991-2021 y.y)

**Ravshan Xomitov**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston

Milliy universiteti dotsenti

t.f.f.d. PhD

[xamitovravshan7@gmail.com](mailto:xamitovravshan7@gmail.com)

Toshkent, O'zbekiston

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** Markaziy Osiyo, etnik omil, integratsiya, milliy masala, demografiya, millatlararo munosabatlar.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlarining millatlararo munosabatlarga oid davlat siyosatining mohiyatiga ko'rsatib berilgan.

Bunda davlatlarning oldiga turgan vazifalar hamda unga tashkiliy-huquqiy tomondan yechim ko'rsatilgani tadqiq qilingan.

## ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА НАПРАВЛЕНА НА ОБЕСПЕЧЕНИЕ СТАБИЛЬНОСТИ ГОСУДАРСТВ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ (1991-2021 г.г)

**Равшан Хомитов**

Доцент Национального университета

Узбекистана имени Мирзо Улугбека

кандидат философских наук, PhD

[xamitovravshan7@gmail.com](mailto:xamitovravshan7@gmail.com)

Ташкент, Узбекистан

---

## О СТАТЬЕ

---

**Ключевые слова:** Центральная Азия, этнический фактор, интеграция, национальная проблема, демография, межэтнические отношения.

**Аннотация:** В статье представлена перспектива государственной политики в отношении межэтнических отношений в государствах Центральной Азии.

В ней показаны задачи, стоящие перед государствами, и их организационно-правовые решения.

---

**Kirish.** Markaziy Osiyo davlatlari tarixan ko'pmillatli hamda turli din vakillari yashovchi maskan bo'lgan. Bu turli omillar bilan shakllangan bo'lib, zamonaviy sharoitda ham mamlakatlar turli millat va xalqlardan, din vakillaridan iboratligini saqlab qolgan. Bundan ma'lumki, mintaqa rivoji hamda respublikalar taraqqiyoti ko'p jihatlan millatlararo barqarorlik masalalari bilan bog'liq bo'lib qolmoqda.

**Adabiyotlar sharhi.** Markaziy Osiyo mintaqasining o'rganilishi fanlararo tadqiqot ob'ekti bo'lib, bu ijtimoiy – gumanitar fan vakillariga ham talluqlidir. Xususan, R.Murtazayeva, D.Babajanova, D.Inoyatova, A.Rasulov, X.Yunusova, K. Saipova, R.Nazarov, B.Xaynazarov, R.Xomitov va boshqalarning tadqiqotlarida masalaning, ilmiy-nazariy jihatlari tadqiq qilingan. Shuningdek, Qozog'istonda N.V.Alekseyenko, M.G. Mendikulova va boshqalarning tadqiqot ishida, Qirg'izistonda A.K.Bektanova, Sh.Batrboyeva, D.J. Baktkulov va boshqalarning tadqiqotlarida. Tojikistonda B.G. Gafurov, Ye.V. Belov, Z.A. Dadaboyeva, R.Kasmova, A.X. Po'latov va boshqalarning tadqiqotlarida masalaning mohiyati tadqiq qilinib, uning muhim jihatlari ochib berilgan.

**Muhokama va natijalar.** Ma'lumki, dunyodagi aksariyat mamlakatlar ko'pmillatli bo'lib, bu jarayonlar Markaziy Osiyo davlatlariga ham tegishlidir. Ya'ni, XXI asrga kelib mintaqada 140 dan ortiq millat va xalqlar yashashi qayd qilinadi. Bu esa mamlakatlardan millatlararo barqarorlikka oid davlat siyosatini tizimli olib borishni talab etadi. Chunki, yaqin o'tmishda ya'ni XX asr 80 yillari oxirida respublikalarda sodir bo'lgan milliy nizolar ham bu masalaning dolzarbligini ko'rsatadi. Xususan, Farg'ona voqeasi ham shu davrlarda yuz berib, unga ijtimoiy masalalar, ishsizlik [1], sovet davrida bir tomonlama olib borilgan milliy siyosat [2], ayrim kuchlarning o'z ta'sirini saqlab qolishga urinish [3] va boshqa ko'plab jihatlari bilan xarakterlanadi. Yana shuni aytish kerakka, shu davrlarga kelib sovet hokimiyatining ochiqlik

siyosatini hamda demokratik qarashlarini kutilmaganda o'rtaga tashlashi ham bir tomondan nizoli to'liqlarni rag'batlantirgan. Aynan mintaqa davlat rahbarlarining o'zaro ishonch hamda kelishuvi bilan bu voqea mintaqaviy tus olmasdan, barqarorlikka yo'liga o'ta borgan. jumladan, 1991 yil O'zbekiston tashabbusi bilan O'sh shahrida respublikalar o'rtasida do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnomani imzolaganlari [4] yuqoridagi jarayonlarga xizmat qilgan. Ma'lumki uchun aytish mumkinki, SSSR mudofaa qo'mitasining maxsus farmoni bilan 1944 yil 15 – 18 noyabrda 92.307 nafar mesxeti turklar “markazning” fikricha Turkiya maxsus xizmatiga josuslik qilmasligi uchun O'rta Osiyoga deportatsiya qilingan. Ularning teng yarmi O'zbekistonga qolgani Qirg'iziston va Qozog'istonga joylashtirilgan [5]. Biroq vaqt o'tib bu xalq vakillari bilan ayrim masalalar sun'iy vujudga keltirilishi natijasida 1989 yil 6 iyun holatida mesxeti turklarning turar joylarini tark etishi holati yuz bergan [6]. Bu borada shuni ham aytish kerakki, voqea natijasida mesxeti turklarning ma'lum qismi Rossiya hamda Gruziya yoki boshqa hududlarga ko'chib ketgan. Xususan, bu voqealar qisman qo'shni davlatlardagi ushbu xalqlarning vakillariga ham ta'sir qilgan. Masalan, 1989 yil Qirg'izistonda 2924 nafar mesxeti turk bo'lsa, 1999 yil ularning soni 1400 nafarni tashkil etganligini ko'rish mumkin [7].

Bu kabi holatlar vaqt o'tib ham davom etgan. Demak, millatlararo barqarorlikka doimiy e'tiborda bo'lgan masala ekanligini ko'rsatadi. Masalan, birgina Qirg'izistonda 2010 yil 11 iyunda sodir bo'lgan voqealar mamlakatning bo'linishiga olib kelishi mumkinligi haqida Qirg'iziston Prezidenti S.Japarov fikr yuritib: “Uch ming yillik boy tarixga ega bo'lgan ko'p millatli O'sh shahrida ham, muborak Jalolobod shahrida ham tashqi buzg'unchi kuchlar, qolaversa, ayirmachilar xalq birligini buzishga urindilar” [8], degan edi.

Bu kabi holatlarni turli yillarda Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikistonda ham ko'rish mumkin edi. Shulardan xulosa qilib mintaqa davlatlari millatlararo masalaga oid tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarini tizimli ravishda olib bordi. Bu millatlararo barqarorlikda asosiy kafolat bo'ldi.

Jumladan, respublikalarda bu borada davlat siyosatini olib boruvchi institut hamda bir vatqda fuqarolik institutlarining ishtiroki ta'minlanadi. Masalan, 1992 yildan O'zbekistonda Baynalmilal madaniyat markazi, Qozog'istonda hamda Qirg'izistonda Xalq assambleyasi ko'rinishdagi nodavlat notijorat tashkilotlar tashkil etildi. Bular millatlararo hamjihatlikka xizmat qildi.

Demak mintaqa davlatlarida millatlararo barqarorlikning tabiiy talabi, har bir millat vakilining yashashi, ta'lim olish, kasb tanlash, axborot olish, erkin harakatlanish, ijtimoiy ta'minot olish va siyosiy, iqtisodiy huquqlaridan erkin foydalanishni va boshqa jihatlarni real hayotda ta'minlab berishni nazarda tutadi. Bular esa o'z navbatida millatlararo barqarorlikning

asosiy shartlaridan birdir. Buning uchun asosiy mas'uliyat davlat institutlarining zimmasiga yuklanadi.

Uning qonuniy asoslari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasida fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta'minlash haqida so'z borib [9], uning 4-moddasida O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir. O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratilishi belgilangan, 8-moddada O'zbekiston xalqini millatidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etishi belgilangan.

Qozog'istonda millatlararo muloqotga oid qonunchilikning shakllanishi 1995 yildagi asosiy qonunda yanada mustahkamlangan.

Qozog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi 5-moddasining 3-bandida maqsadlari yoki harakatlari konstitutsiyaviy tuzumni zo'rvonlik bilan o'zgartirishga, Respublika yaxlitligini buzishga, davlat xavfsizligiga putur yetkazishga, ijtimoiy, irqiy, milliy, diniy, sinfiy va urug'-aymoqchilik adovatini qo'zg'atishga qaratilgan jamoat birlashmalarini tuzish va ularning faoliyati taqiqlangan.

Qirg'iziston Respublikasi Konstitutsiyasi [10] 4-moddasida 3-bandida diniy va etnik asosda siyosiy partiyalar tashkil etish, diniy birlashmalarning siyosiy maqsadlarga erishish nazarda tutilgan bo'lsa, 5-bandida harakatlari konstitutsiyaviy tuzumni zo'rvonlik bilan o'zgartirishga, milliy xavfsizlikka putur yetkazishga, ijtimoiy, irqiy, xalqaro, millatlararo va diniy adovatni qo'zg'atishga qaratilgan siyosiy partiyalar, jamoat va diniy birlashmalar, ularning vakolatxonalar va filiallarining siyosiy maqsadlarni ko'zlagan faoliyati taqiqlangan.

Tojikiston Konstitutsiyasining muqaddimasiga ko'ra "...barcha millat va elatlarning tengligi va do'stligini hurmat qilgan holda, adolatli jamiyat qurishni maqsad qilgan holda" [11], deb boshlanadi. Uning 2-moddasida Tojikistonning rasmiy tili tojik tili ekani, rus tili – millatlararo muloqot til ekanligi belgilangan. Respublika hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlar o'z ona tilidan erkin foydalanish huquqiga egaligi. 6-moddada Tojikiston xalqini millatidan qat'i nazar, Tojikiston Respublikasi fuqarolari tashkil etishi belgilangan.

Turkmanistondagi asosiy qonunda esa 15-moddasida barcha millatlarga milliy-madaniy rivojlanishi uchun imkoniyat berilishi kafolatlangan [12].

**Xulosa.** Markaziy Osiyo davlatlarida kuchli hokimiyat tizimining qaror topishi respublikalarda millatlararo barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etar ekan, bunda hukumatlar o'z faoliyatida muammolarga duch kelmaslik hamda aholining qo'llab-quvvatlashini ham ko'zlagani ma'lum.

Eng muhim davlat va jamiyatning millatlararo totuvlik hamda o‘zaro hamjihatlik yo‘lini tanlagani o‘tgan davr mobaynida mintaqa barqarorligi va rijiga xizmat qildi. Qo‘shnichilik, o‘zaro qarindoshchilik, nikoh munosabatlari o‘z-o‘zidan davlat siyosatlariga ta'sir qilib xalq diplomatiyasi asosida munosabatlarni mustahkamlash, ishonch hamkorlik qilish hamda hududlararo aloqalarni yo‘lga qo‘yishga imkon bergan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Саипова К.Д История национальных меньшинств Узбекистана (1917-1990 гг.). - Т., 2021. - С. 178.
2. Юнусова Х. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва маъанвий жараёнлар. -Т., 2009.
3. Зиямов Ш.З Межнациональные отношения и межэтнические конфликты в Центральной Азии. International Journal of Central Asian Studies. Vol.8. 2003. - P. 154.
4. Халқ сўзи. 1991 йил. 10 март.
5. Павел П Не по своей воле ... история и география принудительных миграций в СССР. - М., 2001. – С.130.
6. Ўз МА 2454-фонд, 6-рўйхат, 6884-йиғма жилд, 27-варак.
7. Население Кыргызстана. Национальный статистический комитет Кыргызской Республики. // Демографические тенденции, формирование наций и межэтнические отношения в Кыргызстане. Ред. З.Кудабаев., М.Гийо., М.Денисенко. - Бишкек., 2002. - Б.125.
8. Қирғизистон Республикаси Президенти сайти.
9. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. -Т.: “Ўзбекистон”. 2023 йил.
10. (Введена в действие Законом КР от 27 июня 2010 года) (В редакции Закона КР от 28 декабря 2016 года № 218) Внесены изменения Законом Кыргызской Республики «О внесении изменений в Конституцию Кыргызской Республики» от 28 декабря 2016 года № 218, принятым референдумом (всенародным голосованием) 11 декабря 2016 года Официальный текст Конституции Кыргызской Республики обнародован Указом Президента Кыргызской Республики от 27 января 2017 года № 14 во исполнение части 2 статьи 2 Закона Кыргызской Республики «О внесении изменений в Конституцию Кыргызской Республики», принятого референдумом (всенародным голосованием) 11 декабря 2016 года.
11. <http://legalns.com>. Конституция Республики Таджикистан.
12. <https://mejlis.gov.tm/single-law/340?lang=ru>.